



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 1 - noyabr

357-11-0-Q/23

Farg‘ona viloyati hokimligi

Viloyatda ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarish to‘g‘risida”gi (2022-yil 22-iyuldagi O‘RQ-784) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investisiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-171-sonli qarori hamda Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2023-yil 25-oktyabrdagi “Viloyat hududlarida suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni qayta ko‘rib chiqish va ma‘qullash haqida”gi VI-60-103-11-0-K/23-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. “Farg‘ona suv ta‘minoti” MCHJ direktori M.Yuldashevning ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) yuzasidan 2023-yil 19-sentyabrdagi 01/971-sonli xati shuningdek, Farg‘ona viloyati iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmalarining xulosalari ma‘lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i I.Xalimbekov, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasi direktori B.Obidjonov, “Yangi Farg‘ona” gazetasi tahririyati va rasmiy veb-saytlarda e‘lon qilish tavsiya etilsin.

4. Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kirishi belgilansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020-yil 27-oktyabrdagi VI-XX/103-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Zoxidov) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqovlar zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



X. Bozarov

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 1-noyabrdagi
357-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona viloyatida suv ta‘minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun amaldagi
va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)**

Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif)(so‘m)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so‘m)
Ichimlik suv yetkazib berish narxi		
Aholi uchun 1 m ³	1000	1900
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m ³	1300 (QQSsiz)	2991 (QQSsiz)
Ulgurji iste‘molchilar uchun 1 m ³	1300 (QQSsiz)	2991 (QQSsiz)
Oqova suv xizmati narxi		
Aholi uchun 1 m ³	300	450
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m ³	365 (QQSsiz)	777 (QQSsiz)
Ulgurji iste‘molchilar uchun 1 m ³	365 (QQSsiz)	777 (QQSsiz)